

# Samarqand shahrida o`tkazilayotgan O`zbekiston – Rossiya 3-ta'lim forumida "O`zkiyosanoat" AJ ham faol qatnashmoqda

// 26 October 2022 yil

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/samarqand-shahridagi-uzbekiston-rossiya-3-talim-forumi>



Samarqand shahrida O`zbekiston – Rossiya 3-ta'lim forumi o`tkazilmoqda. Unda O`zbekiston va Rossiya tomonidan 200 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, ishlab chiqarish korxonalarini vakillari, vazirlik va idoralar mas'ullari ishtirok etishmoqda. Ta'lim va ilm-fan rivojiga alohida e'tibor qaratuvchi "O`zkiyosanoat" AJ ham ushbu nufuzli tadbirda faol qatnashmoqda. Forumda "O`zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisi o`rinbosari Yevgeniy Korjikov ham ma'ruza o`qidi.

Mazkur forum doirasida mamlakat oliy o'quv yurtlari bilan Rossiya ishlab chiqarish sektorlari o'rtasida integratsiyani yo'lga qo'yish, muhandislik, energetika, kimyo sanoati sohalarida kadrlar tayyorlash, malaka oshirish va ilmiy faoliyatdagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilinmoqda.

Forum yakunida 100 ga yaqin hamkorlik shartnomasi imzolanishi kutilmoqda. Bitimlar asosan Rossiyada rivojlangan texnologik ishlab chiqarish sohalarining tajribasini O`zbekiston oliygohlariga tatbiq etishga qaratilgan.







uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26



**"O`zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**